

NARSHAXIYNING “BUXORO TARIXI” ASARI HAQIDA

Mo`minova Muslima Olimjon qizi

O`zbekiston Milliy Pedagogika universiteti

Tarix fakulteti II bosqich talabasi

(+998970550825)

mominovamuslima815@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Narshaxiyning Buxora tarixi asari haqida bayon etiladi. Muallif Narshaxiy o`rta asrlarda Somoniylar davrining yetuk tarixchisi hisoblanadi. U o`zining “Buxoro tarixi” asarida qadimiy o`rta asrlarda Buxoro haqida, uning geografik o`rni, unda joylashgan shaharlar, hukmronlik qilgan sulolalar haqida to`liq ma`lumot bergan. Ayniqsa, Narshaxiy Buxoro hududida joylashgan savdo shaharlari haqida alohida ma`lumot beradi. Buxoroda hukmronlik qilgan hukmdorlar, Tag`shoda hayotiga alohida to`xtalgan. Movaunnahr hududida bo`lib o`tgan “Oq kiyimlilar” qo`zg`olonining yetakchisi “Muqanna” asl ismi Hoshim Ibn Hakim hayoti haqida ham ma`lumotlar qayd etilgan.

**TAYANCH SO`ZLAR:** Narshaxiy, Buxoro Tarixi, Buxora, Tavoiz, Hoshim Ibn Hakim, Tag`shoda, Movaunnahr, Xuroson.

АННОТАЦИЯ: В данной статье описывается труд Наршахи «История Бухары». Автор Наршахи считается выдающимся историком эпохи Саманидов в Средневековье. В своем труде «История Бухары» он предоставил полную информацию о Бухаре в древнем Средневековье, ее географическом положении, расположенных в ней городах и правящих династиях. В частности, Наршахи приводит особые сведения о торговых городах, расположенных в Бухарском регионе. Он уделил особое внимание правителям, правившим в Бухаре, и жизни Тагшоды. Также зафиксирована информация о жизни Хашима ибн Хакима, настоящее имя которого было «Муканна», лидера восстания «Белых одетых», произошедшего в районе Мовауннахра.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Наршахи, История Бухары, Бухара, Тавайз, Хашим ибн Хахим, Тагшода, Мовауннахр, Хорасан.

ANNOTATION: This article describes Narshahi's work History of Bukhara. The author Narshahi is considered an accomplished historian of the Samanid era in the Middle Ages. In his work "History of Bukhara", he provided complete information about Bukhara in the ancient Middle Ages, its geographical location, cities located in it, and the ruling dynasties. In particular, Narshahi provides special information about the trading cities located in the Bukhara region. He paid special attention to the rulers who ruled in Bukhara and the life of Tag'shoda. Information about the life of Hashim

Ibn Hakim, whose real name was "Mukanna", the leader of the "White-Clad" uprising that took place in the Movaunnahr region, is also recorded.

KEYWORDS: Narshahi, History of Bukhara, Bukhara, Tavaiz, Hashim Ibn Hakim, Tag'shoda, Movaunnahr, Khorasan.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyya Xattob ibn Sharik Narshaxiy mashur tarixchi sifatida tanilgan. U 899 yil Buxoro vohasining Narshax qishlog'ida dunyoga kelgan. Alloma haqida ma'lumotlar manbalarda kam uchraydi. U haqda Sa'oniyning "Kitobul ansob" asarida u kishining to'liq ismini Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn xattob ibn Sharik deb keltirilgan. Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro Tarixi" asari orqali u kishi haqida ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Samoniylar saroyida kotiblik qilgan Narshaxiy 943-944 yillarda "Buxoro Tarixi" ("Tahqiqi viloyisti Buxoro") nomli asarini arab tilida yozib, uni Samoniylar amiri Nuh ibn Nasar hukumronlik davriga bag'ishlangan. Narshaxiyning o'g'li Abu Bakr Mansur va nevarasi hadisshunos olim Abu Rafi al-Ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja'far asarni arab tilida davom ettirishib, Mansur ibn Nuh (hukumronlik davri : 997-999), ya'ni, so'ngi somoniylar davrigacha to'ldirishgan. Nasafiyning "Kitob al-qand" ("Samaarqandiya") va Abu Sa'd as-Sam'oni (1113-1167) ning "Kitob al-ansob" asarlarida Narshaxiy haqida ma'lumotlar mavjud. Narshaxiy o'zi tug'ilgan qishlog'ida vafot etgan. Asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. 1128 yil Quvalik Abu Nasir Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy asarni fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan. 1178-1179-yillarda asar ikki marta qisqartirilgan. Tarjimonlar qisqartirish bilan birga uni Yangi ma'lumotlar bilan ma'lum ma'noda to'ldirganlar. "Buxoro tarixi" 36 bobdan iborat bo'lib, asosan, Buxoro vohasining tarixiga bag'ishlangan. Kitobning bir necha bobi Buxoroning barpo etilishi, nomlari, podshohlariga bag'ishlangan. Asarning IV bobi Buxoro atrofidagi Nur, Karmana, Tavoiz, Iskajat, Varaxsha, Vardona, Poykand, Zandana, Afshona, Sharg', Barakat, Romiton, Baykand (Poykent), Farob va boshqalar yoritilgan. Nur katta joy bo'lib, unda masjidi jome joylashgan. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun bu yerga kelganlar. Tavois Buxoro viloyatlaridan bo'lib asl nomi Arquddir. Bu yerda boy va zebu ziynatni sevuvchi kishilar yashagan. Zebu ziynatga berilgan har bir kishi ziynat uchun to'vus saqlagan. Arablar bu yerga kelmaslaridan oldin to'vusni ko'rmagan edilar va bu yerni ular "Zot ut-tavois"- "Tovuslar egasi" deb ataganlar. Uning asl nomi unutilib keyinchalik "zot" so'zini tashlab Tavois deb atashgan. Kuz faslida bu joyda o'n besh kun bozor bo'lar edi. Bu bozorda shunday rasm bor ediki har qanday nuqsonli narsalar va qullar va boshqa nuqsonli narsalar sotilar edi. Bu yerga Farg'ona va Choch va boshqa joylardan savdogarlar kelishar edi. Zandana qishlog'i katta qa'la, bozor va masjidi jomega ega edi. Bu yerda har juma kuni namoz o'qilar hamda bozor qilinar edi. Zandanada bo'z to'qib chiqarilgan uni "zandaniychi"

deb atashganlar. Bu boʻzlar Buxoroning koʻplab joylarida toʻqib chiqarilgan. Boʻzlarni Iroq, Fors, Kermon, Hindiston kabi joylarga olib borar edi. Vardona katta kuxandizga ega qishloq. U qadim vaqtlardan podshohlarning turarjoylari boʻlgan. Vardona Buxoro shahridan qadimiyoq barpo boʻlgan uni Shoxrur Malik bino qilgan. U Turkistonning chegarasida joylashgan. Bu yerda haftada bir kun bozor boʻlib savdogorlar koʻp boʻlar edi. U yerdan chiqadigan narsa ham “zandaniychi” deb atalgan. “Tarixi Narshaxiy” kitobining birinchi beti (Yangi Buxoro, 1904). “Buxoro tarixi” kitobining birinchi beti (Toshkent, 1966) shahar va qishloqlarining tasviriga bagʻishlangan. Unda bu joylarning tarixi, aholisi va uning mashgʻuloti, faoliyati hamda tashqi shaharlar bilan munosabatlar hikoya qilinadi. Buxoro aholisining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir boʻlgan muhim tarixiy voqealar bayon qilinadi. Kitobda Oʻrta Osiyoda arablarning hukmronligining oʻrnatilishi, islom dinining yoyilishi va Buxoroning arablar tomonidan taqsimlab olinishi hamda xalifalikka qaragi kurashlar, ayniqsa, Muqanna va boshqalar boshchiligidagi xalq qoʻzgʻolonlari batafsil hikoya qilinadi. “Buxoro tarixida” IX asrda Oʻrta Osiyoning arablar tomonidan ajralib chiqishi, Movarounnahr va Xurosonda somoniylar davlatining barpo boʻlishi va Somoniylar davrida Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti tasvirlangan. Asarda Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid maʼlumotlar boʻlib, unda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi hamda ark va shaxristonning bino qilinishi hikoya qilinadi. Asar faqat Buxoro tarixiningina emas, balki butun Oʻrta Osiyo tarixini oʻrganishda ham nodir manbadir. “Buxoro tarixi” Parij (1892) da fransuz, Buxoro (1904) va Tehron (1939) da fors, Toshkent (1897) da rus, Kembrij (1954) da ingliz, Toshkent (1966, 1993) da oʻzbek tilida, Dushanbe (1979) da tojik tilida nashr etilgan. Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar ibn Zakkoriyo ibn al-Xattob ibn Shariyk ibn Baziʼ an-Narshaxiy ulamolardan, ulamolar ha undan hadis rivoyat qilganlar. Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar Zakkoriyo Xattob ibn Sharik Narshaxiy hijriy 348 (959) yili safar oyida vafot etgan. “Buxoro tarixi” asarining bosh soʻzida aytilgandek, bu kitobni dastavval Buxoroning Narshax qishlogʻida boʻlgan Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar an-Narshaxiy 943-944 yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiy nomi Oʻrta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi-yu, ammo uning hayotiga oid biror toʻliq maʼlumot keltirilmaydi.

Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Quboviy shunday deydi: "Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar an-Narshaxiy Buxoro (shahri), uning xususiyati va fazilatlari, shaharning oʻzida va qishloqlarida mavjud boʻlgan qulay sharoitli va foyda yetkazuvchi narsalar, shaharga aloqador boʻlgan narsalar haqida hamda paygʻambar "Alloh unga oʻz rahmat va salomini yoʻllasin" uning suhbatdoshlari, tobelari va din olimlari "ularning barchasidan alloh rozi boʻlsin" tomonidan Buxoroning fazilati borasida aytilgan hadislar va soʻzlar haqida bir kitob yozgan va uni marhum Amiri

hamid Abu Muhammad Nuh ibn Nasr nbn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni nomiga bag'ishlagan. Bu kitob arab tilida, go'zal iboralar bilan hijriy 332-333 (milodiy 943-944) yillar yozilgan edi. Ammo ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'kishga rag'bat ko'rgazmaganliklari sababli, do'stlarim mendan u kitobni fors tiliga tarjima qilishni iltimos qildilar. Men iltimosni qabul qildim va besh yuz yigirma ikkinchi yilning jumod ul-avval oyida (milodiy 1128) kitobni fors tiliga tarjima qildim". Biroq, arab tilidagi nusxada keraksiz va buning ustiga o'qiganda kishi tabiatiga malollik orttiradigan narsalar haqida ham so'zlangan ekan. U tarjimaga kiritmay qisqartirib yuborgan. Undan yarim asr o'tgandan keyin asar yana qaytadan tahrirga uchragan: 1178-1179 yillar mobaynida Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors tilidagi tarjimini ikkinchi marta qisartirib bayon qilgan. Ammo asarni o'qir ekanmiz, biz unda, ba'zan, mazkur 1178-1179 yildan keyingi to 1220 yilgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida ham, qisqa-qisqa ma'lumotlar uchratamiz. Bu hol shuni ko'rsatadiki, Muhammad ibn Zufardan keyin ham bir yoki bir necha bizga noma'lum kishilar asarni tahrir qilganlar. Ular ham asarni qisartirganlar deyishga asos bo'lmasa-da, lekin qo'shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan aniq anglashilib turibdi. "Buxoro tarixi" ning biz tanishishga muyassar bo'la olganimiz barcha qo'lyozma nusxalari, ular orasidagi ba'zi farqlardan qat'i nazar, ana shu 1220 yilgacha davom ettirilgan matnni. o'z ichiga oladi. Narshaxiyning hamda uning asarini bevosita qayta ishlab arabchadan fors tiliga tarjima qilgan Abu Nasr Ahmad va bu tarjimini qisqartirib bayon etgan Muhammad ibn Zufarlarning asl nusxalari esa hozirgacha ham manbashunoslik fani uchun noma'lumligicha qolib kelmoqda. Lekin bizgacha yetib kelgan asar nusxasining mazmuniga qaraganda, shuni aytish mumkinki, tarjimon Abu Nasr Ahmad ham, qisartiruvchi muharrir Muhammad Ibn Zufar ham o'z ishlariga oddiy tarjima yoki tahrir tarzida qaragan emaslar. Asarning ko'p yerlarida uning muallifi Abu Bakr Muammad ibn Ja'farga hamda tarjimon Abu Nasr Ahmadga ilova qilib so'zlangan jumlar shuni ko'rsatadiki, tarjimon Abd Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufar ham o'z ishlariga mustaqil bir tus berganlar. Bu manbaalardan biri Abu Nasr Ahmadning o'zi ko'rsatib o'tgani Abul-Hasan Abdurahmon ibn Muhammad Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" nomli asaridir. Bu asarning Tarjimon Abu Nasr Amad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud bo'lgan bizning davrimizgacha yetib kelgan kelmaganligi hozircha ma'lum emas. Ammo undan keltirilgan "Buxoro tarixi"dagi ayrim satrlarning o'zi ham Abul-Hasan Abdurahmonning kitobi naqadar muhim bir tarixiy manba bo'lganligini ko'rsatadi. "Xazoin ul-ulum"dan ma'lumotlar keltirilishi haqiqatan ham Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad tomonidan bajarilganligiga esa qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufarning o'z nomidan keltirib: "Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr... shunday deydi. Abul-Hasan Nishopuriy "Xazoin ul-ulum"da aytishicha..." degan so'zlari shubhasiz dalildir.

Ana shu mazmundagi ko'p jumlar yana shuni ko'rsatadiki, Narshaxiynshg asariga qo'shimchalar kiritgan kishi asosan tarjimon Abu Nasr Ahmad bo'lib, Muhammad ibn Zufarning ishi, qat'iy qilib ayta olmasak ham, fors tilidagi tarjimoni qisqartirib bayon qilishdan iborat bo'lgan. Tarjimon Abu Nasr Ahmad va undan keyingi muharrirlar asar matniga anchagina o'zgartirishlar kiritgan bo'lsalar ham, lekin Narshaxiy nomini musannif-muallif sifatida saqlab qolganlar: masalan, asardagi: "Bu kitobning musannifi aytadi" degan so'zlar buni yaqqol isbotlay oladi. Lekin, shunga qaramay, asardagi bir qancha ma'lumotlar Narshaxiy o'z kitobini yozib tugallagandan (944) keyingi tarjimonga yaqin (1128) davrlarga oid ekanligiga ko'ra, biz bu ma'lumotlar muallifi deb Abu Nasr Ahmadni yoki undan keyin kitobni qisqartirib tahrir qilgan Muhammad ibn Zufar va boshqa, hozircha nomlari aniqlanmagan shaxslarni tanishimiz lozimligini taqozo etadi.

Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham "Tarixi Narshaxiy" ("Narshaxiy tarixi"), "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi"). "Tarix ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori Buxoro" ("Buxoro haqida xabarlar") kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib, ulardan eng anig'i "Tarixi Buxoro" hozirda tarixiy adabiyotda qat'iy o'rnatilib oldi. "Tarixi Narshaxiy" deb atalishi esa yuqorida eslatib o'tganimizdek, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo'shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq ishlatilib kelmokda. Shunga binoan, ushbu nashrda ham asarning nomi "Buxoro tarixi" deb qabul qilindi. "Buxoro tarixi"ni bosh manba sifatida o'rganib, undagi qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko'p vaqtlardan beri davom etib kelmokda. Buxoroning VIII-XII asrlardagi tarixidan bahs etuvchi hozirgi zamon yirik ilmiy tadqiqot ishlarining hammasida ham "Buxoro tarixi"dan olingan ma'lumotlarni uchratamiz desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda asarning bir yoki bir qancha qo'lyozma nusxalari asosida tayyorlangan matni ham bir necha bor 1892 yili Ch. Shefer tomonidan Parijda, 1904 yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda, 1939 yili Mudarris Rizaviy tomonidan Tehronda nashr qilingan. Shuningdek, "Buxoro tarixini"ning N. Likoshin tomonidan bajarilgan izohli ruscha tarjimasi, 1897 yili Toshkentda va R. Frayning izohlar ilova etilgan inglizcha tarjimasi, 1954 yili Kembrijda bosilib chikdi. "Buxoro tarixi"ning keng o'quvchilar ommasiga diqqatiga tavsiya etilayotgan o'zbekcha tarjimasi A. Rasulov tomonidan bundan bir necha yil avval O'zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida asarning Parij va Buxoro nashrlari hamda mazkur institutning qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 5388-11 raqamli 1235 (1819-1820) yili ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi asosida bajarilgan edi. So'ngra, ushbu satrlar muallifi tomonidan tarjimoni tahrir qilib, nashrga tayyorlash asnosida bosma va qo'lyozma nusxalar soni yana ko'paytirilib, tarjima

qaytadan ko‘rib chiqildi va ba’zi tekstologik izoxdar tuzildi. Chunonchi, bu ishga "Buxoro tarixi"ning Tehronda Mudarris Rizaviy tomonidan nashr qilingan fors tilidagi qiyosiy nashri va SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo‘limida saqlanayotgan 1008 (1599-1600) yilda ko‘chirilgan 675 raqamli hamda Tojikiston SSSR Fanlar akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari fondidagi 1060 (1650) yilda ko‘chirilgan 513/11 raqamli qo‘lyozma nusxalar jalb qilindi. Bu qo‘lyozma va bosma nusxalarni bir-biriga taqqoslash natijasida Tehron nashrini asos qilib olish muvofiq topildi. Chunki garchi bu nusxa ham ayrim kamchiliklardan xoli bo‘lmasa-da, umuman olganda boshqa qo‘lyozma va bosma nusxalarni nazarda tutib nashrga tayyorlanganligi bilan e’tiborga sazovordir. Bu bosma nusxaning kamchiliklarini tekshirib borish uchun esa asosan Parij bosmasi, Buxoro bosmasi, Leningrad qo‘lyozmasi va Dushanba (Tojikiston SSSR) qo‘lyozmasi matnlaridan foydalanildi. Zarurat tug‘ilgan ayrim hollarda O‘zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining XIX asrda ko‘chirilgan 2212/1 va 4355/111 raqamli qo‘lyozmalari ham jalb qilindi.

Jug‘rofiy va shaxsiy nomlarga berilgan qisqacha izohlar D. Yu. Yusupova tomonidan bajarilgan.

Ma'lumki, "Buxoro tarixi"ni dastlab yozgan Muhammad ibn Ja'far ham, so‘ng asarni qisqartirib va qo‘shimchalar qo‘shib arabchadan fors-tojik tiliga tarjima qilgan Ahmad ibn Muhammad va bu tarjimani qisqartirib bayon qilgan Muhammad ibn Zufarlar ham IX-XII asrlar sharoitida, o‘z davrlarida mavjud bo‘lgan iqtisodiy, ma'naviy hayot ta'sirida ish olib borganlar. Shuning uchun ham "Buxoro tarixi" IX-XII asrlar ijtimoiy muhiti taqozosicha islom diniga hamda o‘sha davrda hukmron bo‘lgan tuzumga qarshi harakatlar (masalan, Muqanna qo‘zg‘oloni) ni qoralash pozitsiyasida turib yozilgan. Biroq shunga qaramay, asarda katta tarixiy qimmatga ega bo‘lgan ma'lumotlar keltirilgan va ularni ilmiy obyektiv ravishda tahlil qilish tarix fani uchun foydadan holi emas. Bu hol "Buxoro tarixi" ma'lumotlari O‘rta Osiyonining VII-XII asrlar tarixidan bahs etuvchi ilmiy-tarixiy asarlarning aksariyatlari ko‘p vaqtlardan beri foydalanib kelinayotganligi bilan shak-shubhasiz isbotlangan. Bu qimmatli va noyob asarning ushbu o‘zbekcha nashri ham tarixchi-tadqiqotchilar, keng o‘quvchilar ommasi diqqatiga bosh manba hamda IX-XII asrlar tarixiy adabiyotidan namuna sifatida taqdim etiladi.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari Buxoro shahri va uning atrofidagi hududlarning qadimgi davrlardan boshlab rivojlanish jarayonini yoritib beruvchi noyob tarixiy manbadir. Asarda shahar hayoti, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy voqealar hamda madaniy tarrafiyot izchil va aniq tasvirlangan. Ushbu asar orqali biz nafaqat Buxoroning o‘tmishi, balki o‘sha davr xalqlarining turmush tarzi va dunyo qarashini ham chuqur anglaymiz "Buxoro tarixi" bugungi kunda ham tarixiy xotirani asrasg va

yosh avlodni milliy qadiryatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Bakr Muhammad Ibn Jafar An-Narshaxiy. Fors tilidan A.Rasulev tarjimasi.
– T.: Dunyo nashri,2024.

